
DEZINFEKTSIYA ISHLARI DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumanida koronavirusga qarshi kurash bo'yicha profilaktika tadbirlari davom etmoqda. Tuman hokimi I. Novikovning tashabbusi va sektor rahbarlarining sayi-xarakatlari bilan tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi tomonidan kunlik dezinfeksiya ishlari jadal suratda olib borilmoqda.

Virusning tarqalishiga qarshi kurashish maqsadida bugun ham tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi xodimlari tomonidan mahalalarda, ko'chalarda, idora va tashkilotlarda dezinfeksiya ishlari olib borildi. MFY hududlariga Aholi bandligiga ko'maklashish markazi tomonidan biriktirilgan xodimlar ham kunlik zararsizlantirish tadbirlarida faol qatnashmoqdalar.







2020-04-08 16:15:40